

“MULK HUQUQINI FUQAROLIK HUQUQI NORMALARI BILAN HIMOYA QILISH TAMOYILLARI”

Arolova Zarina Lochin qizi

SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlarni tartibga solish, ularning qonunga muvofiqligini ta'minlash haqida keltirilgan. Xususiy mulkni tashkil etish, uni tugatish yoki bekor qilish asoslari to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Mulkchilik asoslarini ta'minlashda shaffoflik va qonunga muvofiq amalga oshirish yo'llari keltirilgan.*

Kalit so'zlari: *mulk, fuqarolik huquqi, xususiy mulk, kodeks, konstitutsiya va qonunchilik.*

Kirish. Mulk huquqi har bir jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va huquqiy adolatini ta'minlaydigan asosiy tamoyillardandir. Fuqarolarning o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda mustahkamlangan. Mulk huquqining samarali himoyasi esa nafaqat huquqiy tizimning, balki umuman davlatning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlaridan biridir. Fuqarolik huquqi mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qoidaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (65-modda) da “Fuqarolarning farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir.

Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.” deya mustahkamlab qo'yilgan. Demak, davlat xususiy mulkni davlat Mulki kabi qo'riqlab, himoya qiladi. Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq bo'lmagan masalalarni o'rganishda mulk egalarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqining himoya qilishning bunday majburiyat-huquqiy usullari ikki ko'rinishda:

- shartnomali munosabatlar;
- shartnomadan tashqari munosabatlarda bo'ladi;

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishi to'g'risida shuni aytish kerakki, tuziladigan xilma-xil shartnomalar aksariyat hollarda qonunga, shartnoma

shartlariga rioya qilinib to'g'ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba'zi hollarda shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini butunlay bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash hamda shuning o'zi bilan mulkiy huquqlarni har tomonlama va to'la himoya qilish masalasi qo'yiladi. Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- qonun hujjatlarining tartiblariga muvofiq kelmaydigan tartiblardagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi naqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas va u FKning 116-moddasiga binoan haqiqiy sanalmaydi hamda har ikki tarafning yoki bir tarafning bunday shartnoma yuzasidan olgan daromadlari davlat daromadlariga o'tkaziladi;

- muomilaga layoqatsiz shaxslar (yosh bolalar, ruhiy kasallar) bilan bitim tuzilishi natijasida mazkur shaxslar mulkiy zarar ko'rsalar, qonun tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas, deb topishi bilan birga buzilgan mulkiy huquqning tiklanishi lozimligini ham ko'rsatadi.

Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senat tomonidan ma'qullangan qonunning 4-moddasida: Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra hamda o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o'z mol-mulkidan xo'jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun tekinga yohud haq evaziga berishi mumkin. Barcha mulkdorlarga o'z huquqlarini amalga oshirishda teng sharoitlar ta'minlanadi. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, xususiy mulk huquqi quyidagi usullar bilan himoya qilinadi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash hamda xususiy mulk huquqini buzuvchi yoki buzilish xavfini tug'diruvchi harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy yemas deb topish va bu holatning oqibatlarini qo'llash;
- davlat organlari, boshqa tashkilotlar yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatini haqiqiy yemas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o'zi himoya qilishi;
- majburiyatni aslicha bajarishga undash;
- zararni qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma'naviy zarar uchun kompensatsiya to'lash;

- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik barqarorligini ta'minlash;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarning qonunga zid hujjatlarini sud tomonidan qo'llanmasligi;
- mol-mulkning ayrim turlariga bo'lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor qilinishini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Xulosa:

Mulk huquqi — shaxs erkinligining, iqtisodiy rivojlanishning va huquq ustuvorligining asosiy poydevoridir. O'zbekistonda ushbu huquqlarni himoya qilish bo'yicha mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Asosiysi, fuqarolar o'z huquqlarini bilishi, huquqbuzarlik sodir etilganda esa o'z vaqtida to'g'ri tartibda murojaat qilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent 2023.
2. Fuqarolik Kodeksi "O'zbekiston" Toshkent 2024y.
3. R.DJ.Ruziyev, V.R.Topildiyev "Fuqarolik huquqi" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021y.
4. Lex.Uz – "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari" 2025y.
5. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.